

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI KODEKSI

BIRINCHI BO'LIM UMUMIY QOIDALAR

I bob. ASOSIY QOIDALAR

Oldingi tahrirga qarang.

1-modda. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik

(1-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik ushbu Kodeks, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining va Vazirlar Kengashining qarorlari, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlaridan iboratdir.

(1-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Ushbu Kodeks qoidalari mazkur Kodeksga kiritilmagan qonunchilik hujjatlarida sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarga ham taalluqlidir.

(1-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

2-modda. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikning vazifalari

(2-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylilikni ta'minlashni, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqilishini, shuningdek bunday huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

(2-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu Kodeks qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdor shaxs) tomonidan qay tartibda qanaqa ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

3-modda. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikning prinsiplari

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik va ayb uchun javobgarlikning muqarrarliligi prinsiplariga asoslanadi.

(3-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

4-modda. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik sohasida O'zbekiston Respublikasining vakolatlari

(4-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni tahririda](#) — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik sohasida quyidagilar O'zbekiston Respublikasi ixtiyoriga beriladi:

(4-moddaning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni tahririda](#) — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikning prinsiplarini aniqlash va umumiy qoidalarini belgilab berish;

(4-moddaning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni tahririda](#) — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladigan harakat yoki harakatsizlikni, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organlar tizimini (mansabdor shaxslarni), mazkur ishlarni yuritish va chiqarilgan qarorlarning ijrosi tartibini belgilash;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik sohasida Qoraqalpog'iston Respublikasining vakolatlarini belgilash;

(4-moddaning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni tahririda](#) — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyat vakillik organlari hamda hokimlari ma'muriy javobgarlik nazarda tutiladigan qaror qabul qilishlari mumkin bo'lgan masalalar doirasini belgilash.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

5-modda. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik sohasida Qoraqalpog'iston Respublikasining vakolatlari

(5-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni tahririda](#) — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik sohasida quyidagilar Qoraqalpog'iston Respublikasi ixtiyoriga beriladi:

(5-moddaning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni tahririda](#) — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

jamoat tartibini saqlash masalalari bo'yicha, basharti bu masalalar ushbu Kodeks bilan tartibga solinmagan bo'lsa, shuningdek tabiiy ofatlar va epidemiyalarga qarshi kurash masalalari bo'yicha ma'muriy javobgarlik belgilash;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

ushbu Kodeksning [90](#), [109](#), [110](#), [161-moddalariga](#), 164-moddasining [ikkinchi qismiga](#), [168-moddasiga](#) binoan buzilishi ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladigan qoidalarni belgilash.

(5-moddaning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 3-dekabrda O'RQ-653-sonli [Qonuni tahririda](#) — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

(6-modda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 28-sentabrdagi O'RQ-638-sonli [Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan](#) — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.09.2020-y., 03/20/638/1333-son)

7-modda. Ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga, fuqarolarni ongli, intizomli bo'lish, O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasi](#) va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan tadbirlar ishlab chiqadilar va ularni amalga oshiradilar.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Mahalliy davlat hokimiyati organlari O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasiga](#), Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga ham muvofiq qonuniylik, huquq-tartibot va fuqarolar xavfsizligini ta'min eta borib, o'z hududlarida barcha davlat organlari va jamoat birlashmalarining ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish

borasidagi ishlarini muvofiqlashtirib turadilar, ichki ishlar organlari, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar hamda ularga hisobdor ma'muriy huquqbuzarlik bilan kurash olib boruvchi boshqa organlar faoliyatiga rahbarlik qiladilar.

(7-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O'RQ-446-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda)

8-modda. Ma'muriy huquqbuzarlik uchun ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llanish vaqtida qonuniylikni ta'minlash

Oldingi tahrirga qarang.

Ma'muriy huquqbuzarlik uchun hech kim qonunchilikda belgilangan asoslar va tartibdan boshqacha tarzda ta'sir ko'rsatish chorasiga tortilishi mumkin emas.

(8-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish qonuniylikka rioya qilish asosida olib boriladi.

Tegishli vakolat berilgan organlar va mansabdor shaxslar ma'muriy ta'sir ko'rsatish choralarini o'z vakolatlari doirasida qo'llaydilar.

Oldingi tahrirga qarang.

Ma'muriy huquqbuzarlik uchun ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llanish chog'ida qonunchilik talablariga rioya etilishi vakolatli yuqori turuvchi organlar va mansabdor shaxslar tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib turilishi bilan, prokuror nazorati bilan, shikoyat berish huquqi bilan ta'minlanadi.

(8-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

9-modda. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikning amal qilishi

(9-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs bu huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt va joyda amal qilib turuvchi qonunchilik asosida javobgarlikka tortiladi.

(9-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasining bayrog'i ostidagi yoki O'zbekiston Respublikasining portida ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida ochiq havo yoki suv bo'shlig'ida bo'lgan kemada ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Kodeksga muvofiq ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

(9-modda O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 8-apreldagi O'RQ-145-sonli Qonuni asosida ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2008-y., 14-15-son, 88-modda)

Ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki bekor qiluvchi hujjatlar orqaga qaytish kuchiga egadir, ya'ni ushbu hujjatlar chiqqunga qadar sodir etilgan huquqbuzarlik hollariga ham taalluqlidir. Ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikni belgilovchi yoki javobgarlikni kuchaytiruvchi hujjatlar esa orqaga qaytish kuchiga ega bo'lmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ko'rilyotgan vaqt va joyda amal qilib turgan qonunchilik asosida yuritiladi.

(9-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

IKKINCHI BO'LIM

MA'MURIY HUQUQBUZARLIK VA MA'MURIY JAVOBGARLIK

UMUMIY QISM

II bob. MA'MURIY HUQUQBUZARLIK

10-modda. Ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi

Oldingi tahrirga qarang.

Ma'muriy huquqbuzarlik deganda qonunchilikka binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

(10-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik, basharti bu huquqbuzarlik o'z xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda, amalga oshiriladi.

11-modda. Ma'muriy huquqbuzarlikni qasddan sodir etish

Basharti ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi g'ayrihuquqiy ekanligini bilgan bo'lsa, uning zararli oqibatlariga ko'zi yetgan, yuz berishini istagan bo'lsa yoki bu oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik qasddan sodir etilgan deb hisoblanadi.

12-modda. Ma'muriy huquqbuzarlikni ehtiyotsizlik orqasida sodir etish

Basharti ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan bo'lsa ham, lekin kaltabinlik bilan ularning oldini olish mumkin deb o'ylagan bo'lsa, yoxud bunday oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'rishi lozim va mumkin bo'lgani holda oldindan ko'ra bilmagan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan deb hisoblanadi.

13-modda. Ma'muriy javobgarlikka tortilish yoshi

Oldingi tahrirga qarang.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda o'n olti yoshga to'lgan shaxslar, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

(13-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-yanvardagi O'RQ-514-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019-y., 03/19/514/2450-son)

14-modda. Voyaga yetmaganlarning ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarligi

Oldingi tahrirga qarang.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar to'g'risidagi nizomda nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi.

(14-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O'RQ-446-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Ana shu shaxslar mazkur Kodeksning 61, 116¹, 116², 116³, 125, 125¹, 126, 127, 128, 128¹, 128², 128³, 128⁴, 128⁵, 128⁶, 129, 130, 131, 132, 133, 134, 135, 135¹, 136, 138, 183, 185, 185¹, 185², 185³, 194, 194¹, 209¹, 218, 220, 221-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan taqdirda, ular umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyatini va huquqbuzarning shaxsini hisobga olgan holda mazkur shaxslarga nisbatan (ushbu Kodeksning 194 va 194¹-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslar bundan mustasno) ishlar voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha tuman (shahar) idoralararo komissiyalari ixtiyoriga berilishi mumkin, ushbu Kodeksning 61-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarning ishlari esa shu komissiyalarga berilishi lozim.

(14-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O'RQ-726-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son)

15-modda. Mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligi

Mansabdor shaxslar boshqaruv tartibini, davlat va jamoat tartibini saqlash, tabiiy muhitni, aholi sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida belgilangan qoidalarga va bajarilishini ta'minlash o'z xizmat vazifalariga kiradigan boshqa qoidalarga rioya etmaganlik bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

Doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs mansabdor shaxs deb e'tirof etiladi.

(15-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O'RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Davlatning biron-bir hokimiyat organi nomidan ish ko'rib, muayyan vazifalarni doimiy yoki vaqtincha amalga oshiruvchi va o'z vakolatlari doirasida ko'pchilik yoxud barcha fuqaro yoki mansabdor shaxslar uchun majburiy bo'lgan harakatlarni sodir etish yoki farmoyishlar berish huquqiga ega bo'lgan shaxs hokimiyat vakili deb e'tirof etiladi.

(15-modda O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O'RQ-391-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)

16-modda. Harbiy xizmatchilar va intizom ustavlari tatbiq etiladigan boshqa shaxslarning ma'muriy javobgarligi

Oldingi tahrirga qarang.

Harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek ichki ishlar organlarining hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar ma'muriy huquqbuzarlik uchun intizom ustavlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Mazkur shaxslar yo'l harakati qoidalarini, ov qilish, baliq tutish va baliq zaxiralarini saqlash qoidalarini, bojxona qoidalarini buzganliklari uchun umumiy asoslarda ma'muriy javobgar bo'ladilar. Yuqorida ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan ma'muriy qamoqqa olish choralari qo'llanilishi mumkin emas. Muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchilariga jarima solinishi mumkin emas.

(16-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O'RQ-726-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son)

Ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan shaxslar jumlasiga kirmaydigan, intizom ustavlari yoki intizom to'g'risidagi maxsus qoidalar tatbiq etiladigan boshqa shaxslar, ana shu ustav yoki qoidalarda to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan hollarda, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun intizomiy javobgar bo'ladilar, boshqa hollarda esa umumiy asoslarda ma'muriy javobgar bo'ladilar.

17-modda. Ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ma'muriy javobgarligi

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim.

Immunitetga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan ushbu Kodeksning O'zbekiston Respublikasi qatnashchi bo'lgan xalqaro shartnomalar va bitimlarga zid bo'lmagan qismi qo'llaniladi.

Oldingi tahrirga qarang.

17¹-modda. Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun shaxslarning ma'muriy javobgarligi

Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali yo'l harakati qoidalari buzilganligi qayd etilgan taqdirda, ma'muriy javobgarlikka transport vositasining mulkdori tortiladi.

Yuridik shaxsga tegishli transport vositasidan foydalanib sodir etilgan yo'l harakati qoidalari buzilganligi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan taqdirda, ma'muriy javobgarlikka yuridik shaxsning transport vositasidan foydalanish uchun mas'ul bo'lgan shaxsi tortiladi.

Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali yo'l harakati qoidalari buzilganligi qayd etilgan taqdirda, huquqbuzarlikning takroriyligi hisobga olinmaydi, ushbu Kodeks 321-moddasining **uchinchi qismida** nazarda tutilgan hol bundan mustasno.

Agar ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risidagi qaror ustidan berilgan shikoyatni ko'rib chiqish jarayonida tegishli transport vositasiga huquqbuzarlik qayd etilgan paytda egalik qilgan